

**XXI АСРДА БИОЛОГИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШ
ИСТИҚБОЛЛАРИ ВА УЛАРДА
ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ**



**ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ БИОЛОГИИ
В XXI ВЕКЕ И ЗНАЧЕНИЕ В НИХ
ИННОВАЦИЙ**



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ НОМИДАГИ
ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ**

**XXI АСРДА БИОЛОГИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ
ВА УЛАРДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ**

**Биология ва уни ўқитиши методикаси кафедраси профессори Хударган
Мавлонов таваллудининг 75 йиллигига бағишланган**

**Республика илмий анжумани материаллари
(2021 йил 15 апрель)**

**ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ БИОЛОГИИ В XXI ВЕКЕ И
ЗНАЧЕНИЕ В НИХ ИННОВАЦИЙ
МАТЕРИАЛЫ**

**Республиканская конференция, посвящённая к 75-летию профессора
кафедры биологии и методики её преподавания Хударгана Мавлонова
(15 апреля 2021 года)**

Жиззах-2021

УДК: 581.5 (09)

ББК: 28.58 Г

Э-59

“XXI асрда Биологиянинг ривожланиш истиқболлари ва уларда инновацияларнинг аҳамияти” мавзусидаги республика илмий анжумани материаллари

Жиззах 2021. – 498 бет.

Таҳрир ҳайъати:, проф. п.ф.д. Ш.С.Шарипов, таҳрир ҳайъати раиси

б.ф.н. доц. Қодиров F., таҳрир ҳайъати ўринбосари

проф., б.ф.д. Раҳмонқулов У.

доц., б.ф.д. (PhD) Азимова Д.Э.

б.ф.д. (PhD). Авалбоев О.Н.

б.ф.д. (PhD). Абдуллаева Н.С.

б.ф.д.(PhD). Ҳамраева Н.Т.

Усанов У.Н.

Тўплам редакторлари: б.ф.д.(PhD)., доц. Азимова Д.Э., б.ф.д.(PhD).

Авалбоев О.Н., б.ф.д.(PhD). Ҳамраева Н.Т.

Уибу тўплам Жиззах давлат педагогика институтида 2021 йил 15 апрелда бўлиб ўтган Республика илмий анжумани материалларидан иборат.

Уларда flora, систематика ва юксак ўсимликлар географияси, биологикхилма-хилликни ўрганиши ҳамда ноёб, ўқолиб бораётган ўсимлик ва ҳайвон турларининг муҳофазаси, ўсимликлар қоплами, ресурсларини ўрганиши, структуравий ботаника, экология, интродукция, сув ва қуруқлик ценозлари ҳайвонларни ўрганиши, паразитлар ва энтомокомлекслари шакллантирувчи, ҳаракатлартирувчи тадқиқотларнинг замонавий муаммолари бўйича олиб борилган тадқиқотларнинг натижалари келтирилган.

Мақолалар тўплами илмий ҳодимлар, қишлоқ хўжалиги ва сув хўжалиги мутахасислар, олий ва ўрта маҳсус ўқув юртлари ўқитувчи, талабалари ҳамда тадқиқотчилар учун мўлжалланган.

Мазкур тўплам Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълими вазирлигининг 2021 йил 2 мартағи 78-Ф-сонли фармойиши асосида нашрга тавсия этилган.

Бу борада Республикаизда экологик таълимни ривожлантириш консепсиясининг қабул қилиниб тасдиқланганлиги айни муддао бўлиб, юртимизнинг экологик муаммоларининг олдини олишда, экологик муҳитни яхшилашда ва ёшларга экологик таълим - тарбия беришда уларнинг саводхонлигини оширишда амалий дастур бўлиб хизмат қиласди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Авесто. “Санъат” 1991 й.12.бет.
2. “Биологик хилма-хилликни сақлаш” – миллий стратегия ва ҳаракат режаси. Тошкент- 1998 й.
3. Ўзбекистон Республикаси Экологик таълимни ривожлантириш консепсияси. Тошкент. 2019й. 15-б.
4. Физиология ва валиеология асослари фанларининг долзарб муаммолари. Экология ва саломатлик конференция материаллари. Наманган- 2020й. 247-249 б.

POLIFAG ZARARKUNANDA CHIGIRTKALAR VA ULARGA QARSHI KURASH CORALARI

N.T. Xamrayeva, U.S. Sotiboldiyev, O. Sayfiyev
Жizzах давлат педагогика институти

Annotatsiya: ushbu maqolada xammaxo'r zararkunandalardan biri bo'lgan chigirtkalar Acrididae tuzulishi va ularga qarshi kurash usullari xaqida malumot berilgan.

Kalit so'zlar: entomofag, morfologiya, fizialogiya, gipopnatik, trixogramma, brakon, xorion, entomopatogen, dendrobatsillin, konidiya, mikrosporadiyalar, pestitsid, inteksitsid

Qishloq xo'jaligida eng kuchli entomofag ofatlardan biri bu chigirtkalardir chunki u qishloq xo'jaligida faqatgina dehqonchilikka emas balki chorvachilikka xam zarar keltiradi. Chigirtkalarning keskin ko'payishi chorva uchun kerak bo'lган oziq ovqatning kamayishiga olib keladi. Natijada go'shtning sifati pasayishi va kamayishiga olib keladi. U Sharqiy Afrika va Janubiy Osiyo mamlakatlari uchun juda katta zarar bo'ldi. Xususan 2020 yilda Keniyada bo'yi 60 km, eni 40 km li bo'lган tarixdagi eng yirik to'da aniqlangan bo'lib, bu to'da 86,4 mln odam uchun yetarli miqdordagi qishloq xo'jaligi oziq mahsulotlari olinishiga iqtisodiy zarar yetkazilganligi isbotlangan. So'nggi davrlarda iqlimning isishi va quruqlashishi chigirtkalar soning o'sishiga va ularga yaxshi sharoitlarni olib keladi. Dunyo aholisini oziq ovqat bilan ta'minlashda qishloq xo'jaligi eng ahamiyatlisi hisoblanib, bunda qishloq xo'jaligiga keltirilgan zararni oldini olish va qarshi kurashish uchun tabiatdagi foydali va zararli turlarni bilish va eng muhimi ajrata olish eng muhimi sanaladi. Dala va bog' hududlarida uchraydigan hasharot turlari minglab sanaladi. Ularning aksariyati zararli bo'lib, bu zararkunanda hashoratlarning polifag (xammaxo'r) vakillaridan chigirtkalar va ularga qarshi kurashish choralar虫 bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Chigirtkalar (*Acrididae*) oilasiga mansub turlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ko'pchiligi yirik hasharot bo'lib (70 mm va undan yirik) asosan tropik zonalarda tarqalgan. Bosh qismi ta'naga erkin o'rnashgan va boshi ko'krakka Gipognatik tipda birikkan bo'lib, bir juft murakkab ko'zlaridan tashqari 1-3 ta oddiy ko'zlarini xam bor, burtlari ko'p bo'g'inli (10 tadan

kam emas), oyoqlari to'la taraqqiy etgan bo'lib, orqa oyoqlarining son va boldirlari yo'g'onlashgan, baquvvat, tikon va pixlari mavjud bo'lib, sakrovchi oyoqlar tipida tuzilgan. Oldingi va o'rta oyoqlari yurish yugurish va tirmashish uchun xizmat qiladi.

Chigirkalar asosan qishlashni tuxumda yoki yetuk lichinkalik davrida o'tkazib, tuxumini maxsus ko'zachaga qo'yadi va tuxum qo'yayotgan vaqtida tuxum qo'ygichini tuproqqa solib, tuxum bilan birga bezlaridan ko'piksimon suyuqlik ajralib chiqadi. Ko'piksimon suyuqlik qancha qotavergani sari tuproqlarni o'ziga tortib boraveradi va natijada tuxumlari tashqarida maxsus ko'zacha xosil bo'ladi. Tuxumni tashqi qobig'i xorion, ichki qobig'i esa sariqlik po'sti deyiladi.

Tuxumdan chiqgan lichinka 12-24 soatdan so'ng oziqlanadi. Butun rivojlanish davrida lichinka 4-5marta tullab, shuncha yoshga kiradi. Oxirgi tullahdan so'ng yetuk hashoratga aylanadi. Chigirkalar to'da va yakka-yakka yashaydi. Chigirkalarning urg'ochisi tuxum qo'ygandan so'ng nobud bo'ladi. Erkagi esa bundan 1 oy oldin nobud bo'ladi.

Chigirkalarga qarshi kurashish ancha oldindan boshlangan bo'lib, xususan qizil chigirkalarga qarshi kurashishda 1762-yili Mavrikiy oroliga Hindistondan Mayna qushlari olib keltirilgan. Bu kurashda biologik agentlardan, xususan entomofaglardan - akarifaglardan foydalaniladi. O'zbekistonda *Trixogramma*, *Brakon* va *Oltinko'zni* ommaviy ko'paytirish maqsadida 900 ga yaqin biolabaratoriylar va biofabrikalar tashkil qilingan.

Entomopatogen mikroorganizmlar asosida (Bt) yaratilgan dendrobatsilin, lepidotsid, bitoksibitsillin singari bakterial preperatlar g'o'za va boshqa ekinlar zararkunandalariga qarshi qo'llanilgan. Xususan marokash chigirkasining VD-85 shtammiga qarshi *Beauveria tenella* zamburug'ining Turkiston termitiga qarshi kurashda yuqori samaradorligiga ega bo'lib, bu vositani chigirkalarga qarshi qo'llash mumkin.

Chigirkalarni yo'q qilishda ularning virus kasalligidan foydalanish mumkin yoki zamburug'lar xam bu kurashda ancha foydali bo'lishi mumkin. Misol tariqasida zigomitsetlar sinfi tarkibidagi Entomoftoralar oilasi bo'lib, ular hasharotlar va boshqa umurtqasiz hayvonlar, kanalar, o'rgimchaklar va ko'poyoqlarning parazitlaridir. Konidiyalar o'sishidan nobud bo'lishigacha yirik hasharotlar 5-8 kunda, maydalari 2-3 kunda o'ladi. Hashoratlarning nobud bo'lishi gemolimfa sirkulyatsiyasi buzulishi va zamburug' toksinlari va fermentlari ajralishi tufayli yuzaga keladi. Hasharotning qorni shishadi, qorin teshigi yoriladi tanasidan suyuqlik oqadi, keyinchalik hasharot tanasi ustidan baxmalsimon qoplamlar singari o'sib chiqadi bu qoplamlar konidiyaforalar va turli shakldagi konidiyalardan iborat bo'ladi. Shuningdek *Boveriya* mitselliysi oq yoki och tusli shoxlangan gifalardan iborat. Bu zamburug' Marokash chigirkasining markaziy Osiyo populyatsiyasidan bu turning BD-85 shtamm va uni turkiston termitiga qarshi sinalganda yuqori samaraga erishilgan (Abdullayev 2001).

Chigirkalarga qarshi kurashda Mikrosporidiylar turkumi vakillari spora hosil qiluvchi mayda obligat hujayra ichi parazitlari bo'lgan eukariot organizmlardir *Nosema Locustae* turi asosida tayyorlangan bir necha preperatlar AQSH da sotuvga chiqarilgan. Bular chigirkalarda parazitlik qilganligi tufayli samarali vosita sanaladi.

Chigirkalarga qarshi kurashda parazit Nematodalardan foydalanish xam samarali vositalardan biri xisoblanadi. Birinchi bo'lib P.De Bax 1968-yilda amalga oshirgan. Bunda hasharotlarning sermahsulligi pasayadi jinsiy ko'payishi zaiflashadi, bepushtlika olib keladi va nobud bo'ladi. *Mermus Longissinus* to'qay chigirkasi paraziti hisoblanadi. Chigirkalarga qarshi kurashda Qizil tanlilardan foydalaniladi yirik va o'rta o'lchamdagagi 1,5-4 mm kanalar hisoblanadi. Zararkunandalarga qarshi kurashda yirtqich qattiqqanotilar alohida ahamiyatga

ega. Xususan *Scorites bucida* alohida ahamiyatga ega u yarim sahro va cho'l mintaqalarida zararkunanda xususan chigirtkalarni qirib foyda keltiradi.

Chigirtkalarga qarshi kurashda pashshalarning Systolchus avlodi turlari chigirtkalarning ko'zachalari ichidagi tuxumlarini yeb oziqlanadi. Zararkunandalarga qarshi kurashda umurtqali hayvonlar zoofaglar alohida o'rinni egallaydi. Bular ichida baqalar xam alohida o'ringa ega. Ko'l baqasi bir kecha kunduzda 100 tagacha, to'qqiz oyda 3000 tagacha hasharotlarni yeb foyda keltiradi. Hindiston maynasi chigirtkalarning eng asosiy kushandasini xisoblanadi bu kushandadan foydalanish 1762-yildan fanga ma'lum. O'zbekiston hududida 10 ga yaqin qushlar chigirtkalar bilan oziqlanadi.

Agrotexnik usullar. Bu usulda tashlandiq yerlardan foydalanish yani ularni xaydash va shudgor qilish eng muhim sanaladi. Kech kuzda qilingan agrotexnik ishlar natijasida chigirtka ko'zalarini agdarib tashlaydi, yog'ilgan yomg'ir va qorlar esa ularning tuxumlarini nobud qiladi. Qishda yahob suvi qo'yilishi xam yaxshi natija beradi.

Kimyoviy usullar. Bu usulda asosan pestitsidlar va insektitsidlar asosiy rol o'ynaydi. Ularni asosi fosforli yoki oltingugurtli bo'ladi. 1960-yilda 14 ta insektitsidlar ro'yxatga olingan bo'lsa, 1977-yilda esa 41 taga yetgan. Ularning 29%i yuqori zaxarli, 42%i o'rtacha zaxarli, 29%i esa kam zaxarlilar ro'yxatiga kiritilgan.

Xulosa qilib aytganda, zararkunandalar xuruji va turli kasalliklar yer yuzida ulkan ofat xisoblanib, ular qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va saqlash davomida xosilni juda katta qismi, ba'zan 60-80% qismini zararkunandalar yeb ziyon keltiradi. Bundan tashqari bunday qishloq xo'jaligini yetishtirish uchun juda ko'p kimyoviy vositalardan foydalanish juda ko'p issiqxonli va foydali sovuqqonli hayvonlarning zaharlanib nobud bo'lishiga olib keladi. Bunda eng foydali lekin natijasi sekin va davomiy bo'ladigan biologik kurash usullarini qo'llash kerak. Chunki biologik kurashda zararkunanda hasharotlarni butunlay yo'q qilish emas balki uni sonini cheklash va tarqalishini cheklashdan iborat chunki zararkunanda hasharotlar yo'q bo'lib ketsa u bilan oziqlanuvchi foydali jonzodlarning sonini kamayishi yoki qirilib ketishiga olib keladi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. O'simliklarni biologik himoya qilish vositalari A.SH.Xamrayev B.A. Xasanov
B.A.Sulaymonov A.G.Kojevnikova Toshkent 2012
2. O'simliklarni kimyoviy himoya qilish X.X.Kimsanboyev A.Y.Yo'ldoshev M. Zahidov
K.X.Halilov I.R.Siddiqov T. A. Qosimov
3. Entomologiya H. Kimsanboyev S. Ergashev Toshkent-2006
4. Entomologiya P. Olimjanov, Tashkent 1977

JIZZAX SHAHAR FLORASI VA UNI O'RGANILISHI

D.M. Maxammadiyev, S.X. Mavlonova, E.A. Aberqulov, A.A. Alimov
Жizzax давлат педагогика институти

Botanik tadqiqotlarning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri flora tarkibining taksonomik xususiyatlaridir. Har qanday hudud florasini o'simlik tarkibini o'rga-nish mazkur hududlarning bioxilma - xilligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jizzax shahar florasi

MUNDARIJA

1-SHO'BA. BIOLOGIYANING ASOSIY MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

| | | |
|----|--|----|
| 1 | Хайдаров, М.М. Норкулов. МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ЛИШАЙНИКЛАРИНИНГ ЎРГАНИШ ТАРИХИ ВА ЎЗБЕКИСТОНДА ОЛИБ БОРИЛАЁТГАН ДАСТЛАБКИ ТАДҚИҚОТЛАР..... | 3 |
| 2 | У.Ш. Каршиева, Ф. Олтибоева, Х. Амонов. НАЗОРАТ ВА РАҶОБАТ НАВ СИНАШ МАЙДОНИДА ЎРГАНИЛГАН НАВ ВА ТИЗМАЛАРНИНГ ҚИММАТЛИ БЕЛГИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ..... | 6 |
| 3 | Халмираева Л.Б., Ф.Ш. Абдурасулов. ЎТИЛЛАШ ВА БАРГДАН ҚЎШИМЧА ОЗИҚЛАНТИРИШНИНГ УНАБИ КЎЧАТЛАРИГА ТАЪСИРИ..... | 8 |
| 4 | Ш.Х. Юсупова И.И. Зокиров. ТАНГАЧАҚАНОТЛИЛАР (LEPIDOPTERA) – НЎҲАТНИНГ АСОСИЙ ЗАРАРКУНАНДАЛАРИ..... | 11 |
| 5 | Бобаева А.С., Халилов Х.Р., Синдоров Ш.Қ. ОЗУҚАБОП ЎСИМЛИКЛАР ГЕНОФОНДИДАН ТАБИЙ ЯЙЛОВЛАР ҲОСИЛДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ..... | 13 |
| 6 | Р.К. Фуломов. <i>PHLOMOIDES ISOCHILA</i> (PAZIJ ET VVED.) SALMAKITUРИГА (LAMIACEAE) ФАРГОНА ВОДИЙСИДАГИ АНТРОПОГЕН ОМИЛЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ..... | 16 |
| 7 | Х.Х. Солижонов, З. Иззатуллаев. ФАРГОНА ВОДИЙСИ ЗУЛУКЛАРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ ВА АҲАМИЯТИ..... | 21 |
| 8 | Шоэрғашова Ш.Ш., Каримов Э.Б., Латышева Л.Н., Оллоберганов ¹ Ш. ОЦЕНКА СОВРЕМЕННОГО СОСТОЯНИЯ КАЧЕСТВА ВОДЫ РЕКИ ЗАРАФШАН ПО УРОВНЮ ЗАГРЯЗНЕНИЯ МИНЕРАЛЬНЫМИ СОЛЯМИ..... | 23 |
| 9 | М.И. Алимова, Н.Б.Эгамбердиев, Б.Р. Насибов. УНИЧТОЖЕНИЕ МИКРООРГАНИЗМОВ ВЫЗИВАЮЩИЕ ГНИЕНИЕ ПИВОВАРЕННОГО ЯЧМЕНИ С ПРИМЕНЕНИЕМ ОЗОНА..... | 27 |
| 10 | Мавлонов Х, Раҳимова М, Ҳолмирзаева А. ЭКОЛОГИЯ ФАНИНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ..... | 29 |
| 11 | N. T. Xamrayeva, U. S. Sotiboldiyev, O. Sayfiyev. POLIFAG ZARARKUNANDA CHIGIRTKALAR VA ULARGA QARSHI KURASH CHORALARI..... | 32 |
| 12 | Maxammadiyev D.M., Mavlonova S.X., Aberqulov E.A., Alimov A. A. JIZZAX SHAHAR FLORASIVA UNI O'RGANILISHI..... | 34 |
| 13 | Z.X. Almamatova, B. Qo'shmatov. ATROF-MUHITNING BIOEKOLOGIYASI..... | 38 |
| 14 | D.I. Mustafaqulova, O. Ismatullayev, G.F. Malikova. BIOLOGIYANI SABZAVOTLARSIZ TASAVVUR QILIB BO'LMAYDI..... | 40 |
| 15 | Э.Э. Икромов, Э.Ф. Икромов. КЎЛ БАҚАСИНИ <i>CENTRORHYNCHUS ALUCONIS</i> LUHE, 1911 АКАНТЕЛЛАСИ БИЛАН ЗАРАЛАНИШНИНГ ХУДУДИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ..... | 44 |